



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 194 sahifa,
12-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

The Role of English Collocations, Idiomatic Expressions, and Phraseological Units in Developing Communicative Competence in Higher Education	10
<i>Alimov Jamshid Ravshanovich</i>	
Milliy xoslangan lisoniy birliklarni teglash tamoyillari	16
<i>Yorkulov Zafarjon Bakirovich</i>	
Oila a'zolari o'rtasidagi o'zaro tushunishning shaxs kognitiv rivojlanishiga ta'sirining psixologik xususiyatlari	20
<i>Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi</i>	
O'qituvchilar darslarni qanday qiziqarli tashkil etishlari mumkin?	26
<i>Dilnura Rustamovna Xamrayeva</i>	
Tarbiya texnologiyasi – talabalarda ilmiy va sinergetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida	33
<i>Mamadaliyev Kamolidin Rahmatullayevich</i>	
Maktab direktor maslahatchilarida strategik boshqaruv tafakkurini rivojlantirishning psixologik omillari	40
<i>Rahmatova Nasiba Sobirovna</i>	
Umumta'lim maktablarida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini sinfdan tashqari faoliyat orqali takomillashtirishning pedagogik-metodik tizimi	46
<i>Urinbayeva Dilfuza Abdumannobovna</i>	
Integrativ ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish	50
<i>Xoldavlatova Gavhar Normaxmatovna</i>	
Klaster asosida TVET tizimida pedagogik innovatsiyalar	55
<i>Sobir Azizov</i>	
Muammoli ta'lim texnologiyasi orqali talabalarining kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish: "muammo" divergent–konvergent o'quv sikli	57
<i>Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich, Yusupov Muxtorbek Roximovich</i>	
Oliy ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya darslarida regbi elementlarini o'rgatishning tashkiliy-metodik asoslar	62
<i>E. E. Jumayev</i>	
Autentik materiallar asosida bo'lajak nemis tili o'qituvchilarining til ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasining eksperimental samaradorligi	65
<i>Jumayeva Gulxan Amrullayevna</i>	
Aleksandr Nil pedagogik ta'limotida shaxs erkinligini rivojlantirish mexanizmlari: ingliz filologiyasi talabalari misolida	71
<i>Atamirzayev Bahrom Bahodir o'g'li</i>	
TPACK modeli asosida ingliz tilida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning adaptiv metodik tizimi	75
<i>Omonova Maftuna Shermatovna</i>	
Multimodal vizual tayanchlar va flashcard asosidagi topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	82
<i>Sevara Alimurodova, Ayubova Said</i>	
Raqamlashtirish jarayonida elektron ta'lim resurslarini yaratishning metodik asoslarini takomillashtirish	88
<i>Nurmaxanov Kayrat Erpayizovich</i>	
Modulli ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari	95
<i>Poyonova Fazilat Olimovna</i>	
Individual ta'lim sharoitida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash samaradorligini pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil asosida baholash	100
<i>Gulbaxor Abdullayevna Gaynazarova</i>	



Oliy ta'lim muassasalarida raqamli menejment tizimlarini joriy etish muammolari va ularni bartaraf etishning samarali yo'llari	106
Matnazarov Hurmatbek Egamberganovich	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	110
Sodiqov Rafikjon Turobjon o'g'li	
Bo'lajak tarbiyachilarning liderlik-boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ...	114
To'xtayeva Dilrabo Nematovna	
Inklyuziv ta'lim: mohiyati, tamoyillari	119
Choriyeva Muxlisa Jumamurodovna	
The Role of Neuromuscular Dentistry in Dental Practice	123
Turayev Alimjan	
Orthodontics' Digital Transformation (Literature Review)	128
Khusanbaeva Jasmin Shavkatovna, Xazratov A. I.	
O'zbekiston SSRda ta'lim islohotlari davrida pedagogika bilim yurtlari faoliyatida o'qituvchilarni tayyorlash jarayonlari va amaliy muammolar	136
Mamatkulova Maxfuza Kozimovna	
Application of Mechanotherapy Techniques in Oral and Craniofacial Surgical Methodologies (Literature Review)	140
Marufova Farangiz Gayratovna	
Theoretical Foundations for Developing Communicative Competence of Future Doctors	147
Nasimova Shahnoza Ziyodullayevna	
Формирование функциональной грамотности и "гибких навыков" (Soft Skills) у учащихся начальных классов в контексте реализации национальной учебной программы Узбекистана	152
Ю. С. Тажиева	
Talabalarda mustaqil ta'lim olish faoliyatini rivojlantirish metodlari	156
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi onim komponentli frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari	160
Koyshekenova Tatyana Kenesariyevna	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ijodiy-metodik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	164
Qo'shaqov Farrux Furqat o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv faollikni oshirishning pedagogik usullari	169
Xoldarova F. M.	
Ingliz tili darslarida ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish metodikasi	172
Madaminova Muzifa Shukurullo qizi	
Sport ta'limi yo'nalishidagi o'quvchilarining generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini baholash mezonlari va indikatorlarini takomillashtirish	178
Nematova Rushana Nemat qizi	
Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish metodikasi	184
Mirzayeva Umida Inamovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati	188
Malikova Dilrabaxon	

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA KOXLEAR IMPLANTLI BOLALARNING ESHITUV-NUTQIY FAOLIYATINI PEDAGOGIK TASHKIL ETISH METODIKASI

Mirzayeva Umida Inamovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika kafedrası assistent o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini tashkil etishning zamonaviy pedagogik va reabilitatsion yondashuvlari tahlil qilingan. Tadqiqotda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni shakllantirish jarayoni, auditorik treninglar, logopedik korreksiya hamda individual ta'lim marshrutining ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mutaxassislar hamkorligi va oilaviy qo'llab-quvvatlash tizimining samaradorligi ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, koxlear implant, eshituv-nutqiy rivojlanish, logopedik metodika, auditorik trening, reabilitatsiya, individual yondashuv.

Abstract: This article analyzes modern pedagogical and rehabilitation approaches to organizing the auditory-verbal activities of children with cochlear implants in an inclusive education setting. The study highlights the process of speech development in children with hearing impairments, the importance of auditory training, speech therapy intervention, and individualized educational pathways. In addition, the effectiveness of interdisciplinary collaboration and family support systems is examined on a scientific basis.

Key words: inclusive education, cochlear implant, auditory-verbal development, speech therapy methodology, auditory training, rehabilitation, individualized approach.

Аннотация: В данной статье проанализированы современные педагогические и реабилитационные подходы к организации слухоречевой деятельности детей с кохлеарными имплантами в условиях инклюзивного образования. В исследовании освещены процесс формирования речи у детей с нарушениями слуха, значение аудиторных тренировок, логопедической коррекции, а также индивидуального образовательного маршрута. Кроме того, на научной основе рассмотрена эффективность сотрудничества специалистов и системы семейной поддержки.

Ключевые слова: инклюзивное образование, кохлеарный имплант, слухоречевое развитие, логопедическая методика, аудиторный тренинг, реабилитация, индивидуальный подход.

KIRISH

Hozirgi kunda inklyuziv ta'lim tizimi alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlashda muhim bosqichga aylandi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) ma'lumotlariga ko'ra, eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarda erta aralashuv ularning nutqiy rivojlanishiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi (WHO, 2021). Koxlear implantatsiya texnologiyasi eshitish qobiliyati og'ir buzilgan bolalarda tovushni qisman idrok etish imkonini yaratadi, biroq bu jarayon avtomatik nutq rivojlanishini kafolatlamaydi. Shu sababli maxsus pedagogik metodika zarur bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi: Inklyuziv ta'lim muhitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini samarali tashkil etish metodikasini ishlab chiqish va ilmiy asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Koxlear implant (KI) tovush signallarini elektr impulsariga aylantirib, eshitish nervini stimulyatsiya qiladi. Biroq implantdan keyingi bosqichda bola tovushlarni "qayta o'rganish" jarayonidan o'tadi. L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, "rivojlanish ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'liq" (Vygotskiy, 1983). Shu bois KI bolalar uchun kommu-



nikativ muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Inklyuziv sinflarda bola sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lim oladi, bu esa nutqiy faollikni oshiradi, muloqotga kirishishni tezlashtiradi, ijtimoiy adaptatsiyani kuchaytiradi. UNESCO (2020) hisobotida inklyuziv muhit "ta'limda teng imkoniyatlarni ta'minlovchi eng samarali model" sifatida e'tirof etilgan.

Eshituv-nutqiy faoliyatni tashkil etish metodikasi 4 asosiy bosqichga asoslanadi:

- 1-bosqichda diagnostika, bunda eshituv reaksiyasini baholash, nutq darajasini aniqlash, individual reja tuzish kiradi.
- 2-bosqichda esa auditorik trening, tovushni farqlash mashqlari, fonematik eshituvni rivojlantirish, oddiy tovushlarga javob reaksiyasi kiradi.
- 3-bosqichda nutqni shakllantirish, bunda so'z boyligini kengaytirish, gap tuzish, artikulyatsion mashqlar kiradi.
- 4-bosqichda esa kommunikativ mustahkamlash, dialogik nutq, rolli o'yinlar, ijtimoiy vaziyatlarni modellash-tirish amalga oshiriladi. Logopedik va reabilitatsion yondashuvda R.I. Lalaeva (2004) fikricha, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni rivojlantirish "tizimli va uzluksiz korreksion jarayon"ni talab qiladi. Shu asosda KI bolalar bilan ishlashda multimodal yondashuv (eshitish + ko'rish + kinestetik), takrorlashga asoslangan trening hamda motivatsion metodlar qo'llaniladi.
- 5-bosqich oila va mutaxassislar hamkorligidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onaning faol ishtiroki bolalarning nutqiy rivojlanishini 30-40 % ga tezlashtiradi (WHO, 2021). Hamkorlik tizimi: logoped, defek-tolog, audiolog, o'qituvchi, ota-onalar.

Diagnostika bosqichi butun reabilitatsion jarayonning poydevori hisoblanadi. Bu bosqichda bolaning eshitish va nutqiy rivojlanish darajasi har tomonlama baholanadi. Avvalo, eshituv reaksiyasi tekshiriladi, ya'ni bola turli intensivlikdagi tovushlarga qanday javob berishi aniqlanadi. Bu jarayon audiologik kuzatuv va maxsus testlar orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, bolaning nutq darajasi tahlil qilinadi: u so'zlarni tushunadimi, oddiy gaplarni tuza oladimi yoki faqat ayrim tovushlarni idrok etadimi - bularning barchasi aniqlashtiriladi. Diagnostika natijalariga asoslanib, har bir bola uchun individual reabilitatsiya va ta'lim rejasi ishlab chiqiladi. Bu reja bolaning imkoniyatlari, eshitish holati va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda tuziladi.

Auditorik trening bosqichi eshituvni "qayta o'rgatish" jarayonining asosiy qismi hisoblanadi. Koxlear implant qo'yilgan bolalar tovushlarni tabiiy ravishda emas, balki qayta ishlangan signal sifatida qabul qiladilar, shuning uchun bu bosqich juda muhimdir. Bu bosqichda bolalarda tovushlarni farqlash ko'nikmasi shakllan-tiriladi. Masalan, baland va past tovushlarni ajratish, turli predmetlar chiqargan tovushlarni tanish kabi mashqlar bajariladi. Shuningdek, fonematik eshituvni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi, ya'ni bola nutq tovushlarini bir-biridan farqlashni o'rganadi. Oddiy tovushlarga javob reaksiyasini shakllantirish ham muhim vazifa hisobla-nadi. Bola o'z ismini chaqirganda javob berish, qo'ng'iroq yoki musiqaga e'tibor qaratish kabi reaksiyalar asta-sekin mustahkamlanadi. Bu jarayon muntazam takrorlash asosida amalga oshiriladi.

Nutqni shakllantirish bosqichi eshituv asosida nutqiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan. Bu bosqichda bola-ning so'z boyligi kengaytiriladi. Avval oddiy, kundalik hayotga oid so'zlar o'rgatiladi, keyinchalik esa mavhumroq tushunchalar kiritiladi. Shundan so'ng gap tuzish ko'nikmasi shakllantiriladi. Bola avval ikki so'zli, keyin esa murakkabroq gaplarni tuzishga o'rgatiladi. Bu jarayonda vizual materiallar, predmetlar va real vaziyatlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Artikulyatsion mashqlar ham ushbu bosqichning muhim qismi bo'lib, ular nutq a'zolarining to'g'ri ishlashini ta'minlaydi. Til, lab va jag' mushaklarini rivojlantirish orqali tovushlarni aniq va tushunarli talaffuz qilishga erishiladi.

Kommunikativ mustahkamlash bosqichi bolaning jamiyat bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlanti-rishga xizmat qiladi. Bu bosqichda dialogik nutq shakllantiriladi, ya'ni bola savol-javob qilish, oddiy suhbatlarda ishtirok etishni o'rganadi. Rolli o'yinlar bu bosqichda juda muhim o'rin tutadi. Masalan, "do'kon", "shifokor", "maktab" kabi vaziyatlar modellashtirilib, bola real hayotdagi muloqotga tayyorlanadi. Shuningdek, ijtimoiy vazi-yatlarni modellashtirish orqali bola turli kommunikativ sharoitlarda to'g'ri harakat qilishni o'rganadi.

Koxlear implantli bolalar bilan ishlashda logopedik va reabilitatsion yondashuv uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. R.I. Lalaeva (2004) ta'kidlaganidek, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqni rivojlantirish "tizimli va uzluksiz korreksion jarayon"ni talab qiladi. Bu fikr mazkur bosqichning ilmiy asosini tashkil etadi. Mana shu asosda ish olib borilganda multimodal yondashuv qo'llaniladi, ya'ni eshitish, ko'rish va kinestetik sezgilar birga-likda faollashtiriladi. Bola faqat eshitish orqali emas, balki ko'rish va harakat orqali ham axborotni qabul qiladi. Bu esa o'rganish jarayonini tezlashtiradi. Shuningdek, takrorlashga asoslangan treninglar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali o'rgatilgan ko'nikmalar mustahkamlanadi. Motivatsion metodlar esa bolaning mashg'ulot-larga qiziqishini oshiradi va faol ishtirokini ta'minlaydi. Oila va mutaxassislar hamkorligi esa ushbu tizimning eng

muhim bo'g'inlaridan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO, 2021) ma'lumotlariga ko'ra, ota-onaning faol ishtiroki bolalarning nutqiy rivojlanishini 30-40 % gacha tezlashtiradi. Shu sababli logoped, defektolog, audiolog, o'qituvchi va ota-onalar o'rtasida uzluksiz hamkorlik yo'lga qo'yilishi zarur.

Ota-onalar uy sharoitida mashg'ulotlarni davom ettirishi, mutaxassislar esa metodik yo'riqnoma berib borishi kerak. Bu hamkorlik tizimi bolaning nafaqat nutqiy, balki ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimizda biz quyidagi ilmiy metodlardan foydalandik: qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, diagnostik suhbat, korreksion-logopedik mashg'ulotlarni tahlil qilish hamda ilmiy adabiyotlar sintezi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, koxlear implantli bolalarda eshituv-nutqiy faoliyatni rivojlantirishda eng muhim omillar:

- erta tashxis va erta aralashuv;
- muntazam auditorik trening;
- inklyuziv muhitda muloqot;
- individual yondashuvdir.

Shu jumladan, nutqiy rivojlanish sur'ati bola implantdan keyingi reabilitatsiya jarayonining sifatiga bevosita bog'liq. Koxlear implantli bolalar bilan ishlashda pedagogik jarayon oddiy ta'limdan farqli ravishda maxsus rejalashtirilgan, tizimli va individual yondashuvga asoslanadi. Chunki bu bolalarda eshitish apparati texnik jihatdan tiklangan bo'lsa-da, nutqni tushunish va ishlab chiqish jarayoni tabiiy ravishda shakllanmaydi. Shu sababli pedagogik tashkil etish eshituvni rivojlantirish, nutqni shakllantirish va kommunikativ kompetensiyani mustahkamlashni o'z ichiga oladi.

Pedagogik tashkil etishning maqsadi va vazifalari quyidagilardan iborat. Koxlear implantli bolalar bilan pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi - ularning eshituv apparati orqali nutqni idrok etish, tahlil qilish va ifodalash qobiliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishdan iborat. Bunda bola faqat tovushni eshitish emas, balki uni ma'noli nutq birliklariga aylantirishni o'rganadi. Shu bilan birga, yana bir muhim yo'nalish - bolani inklyuziv ta'lim muhitiga muvaffaqiyatli integratsiya qilishdir. Bu jarayonda bola umumta'lim sinfida tengdoshlari bilan birgalikda o'qish, muloqot qilish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish ko'nikmalarini egallaydi. Natijada u jamiyatga moslashgan, mustaqil fikrlaydigan va kommunikativ jihatdan faol shaxs sifatida shakllanadi.

Koxlear implant qo'yilgan bolalarda eshituv apparati texnik jihatdan ishlayotgan bo'lsa-da, bu eshituvning tabiiy nutqqa aylanishi uchun maxsus pedagogik trening talab etiladi. Shu sababli birinchi vazifa - bolani eshituv signallaridan ongli foydalanishga o'rgatishdir. Bu jarayonda bola turli tovushlarni ajratish, ularning manbasini aniqlash va ularga mos javob qaytarishni o'rganadi. Masalan, eshik qo'ng'irog'i, telefon signali yoki inson ovozini farqlash kabi mashqlar bajariladi. Bu ko'nikma keyingi nutqiy rivojlanish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Fonematik eshituv - bu nutq tovushlarini bir-biridan farqlash va ularni to'g'ri idrok etish qobiliyatidir. Koxlear implantli bolalarda bu jarayon alohida e'tibor talab qiladi, chunki ular tovushlarni tabiiy emas, balki sun'iy signal sifatida qabul qiladi. Shu bois pedagogik jarayonda bolaga yaqin fonemalarni (masalan, "b-p", "d-t", "s-sh") farqlash mashqlari beriladi. Shuningdek, so'z ichidagi tovushni aniqlash, bo'g'inlarni ajratish va ritmik eshituvni rivojlantirish ishlari olib boriladi. Bu bosqich nutqni to'g'ri tushunish va talaffuz qilishning asosiy poydevoridir.

Bu vazifa bolada passiv va aktiv nutqni rivojlantirishga qaratilgan. Avval bola eshitgan so'z yoki gapni tushunishni o'rganadi (passiv nutq), keyin esa uni mustaqil ravishda ifodalashga o'tadi (aktiv nutq). Bu jarayonda kundalik hayotga oid so'zlar, predmet nomlari va oddiy gaplar o'rgatiladi. Keyinchalik esa murakkabroq grammatik tuzilmalar kiritiladi. Nutqni shakllantirishda vizual materiallar, predmetli o'yinlar va real hayotiy vaziyatlardan foydalanish juda muhim hisoblanadi. Natijada bola nafaqat so'zlarni eshitadi, balki ularni mazmunli nutq sifatida ishlata boshlaydi.

Ijtimoiy kommunikatsiya bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun muhim omildir. Koxlear implantli bolalarda bu ko'nikma maxsus shakllantiriladi, chunki eshitishdagi cheklovlar muloqot jarayonini sekinlashtirgan bo'lishi mumkin. Pedagogik jarayonda bola turli ijtimoiy vaziyatlarda muloqot qilishni o'rganadi: salomlashish, iltimos qilish, savol berish va javob qaytarish kabi oddiy kommunikativ harakatlar asta-sekin murakkablashtiriladi. Rolli o'yinlar va guruhli mashg'ulotlar bu jarayonni yanada samarali qiladi. Shu orqali bola jamiyatda o'z fikrini ifoda eta oladigan va boshqalar bilan erkin muloqot qiladigan shaxsga aylanadi. Bu vazifa pedagogik jarayonning yakuniy va eng muhim bosqichlaridan biridir. Maqsad - bolani kattalar yoki mutaxassis yordamisiz mustaqil muloqot qila oladigan darajaga yetkazishdir.



Bunda bola o'z ehtiyojini ifoda etish, savol berish va javob olish, dialogni davom ettirish, notanish vaziyatlarda muloqotga kirishish kabi ko'nikmalarni egallaydi. Bu jarayon asta-sekin amalga oshiriladi va ko'p takrorlash, real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ijtimoiy muhitga faol jalb qilish orqali mustahkamlanadi. Buning natijasida bola nafaqat nutqiy jihatdan, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan ham mustaqillikka erishadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini samarali tashkil etish kompleks pedagogik-reabilitatsion tizimni talab etadi. Zamonaviy metodikalar, mutaxassislar hamkorligi va oilaviy qo'llab-quvvatlash orqali bolalarning nutqiy va ijtimoiy rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilash mumkin.

Koxlear implantli bolalarning eshituv-nutqiy faoliyatini pedagogik tashkil etish murakkab, ammo izchil yondashuvni talab etuvchi ko'p bosqichli jarayon hisoblanadi. Mazkur jarayonning samaradorligi, avvalo, maqsad va vazifalarning aniq belgilanishi hamda ularning tizimli ravishda amalga oshirilishiga bog'liqdir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, eshituv qobiliyatidan samarali foydalanishni o'rgatish, fonematik eshituvni rivojlantirish, nutqni tushunish va ifodalashni shakllantirish, ijtimoiy kommunikatsiyani rivojlantirish hamda mustaqil muloqotga kirishish ko'nikmalarini hosil qilish o'zaro uzviy bog'liq bosqichlar sifatida qaralishi lozim. Har bir bosqich keyingisi uchun poydevor vazifasini bajaradi va umumiy natija - bolaning to'liq kommunikativ rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik jarayonda multimodal yondashuv, individual rejalashtirish va muntazam takrorlash tamoyillarining qo'llanilishi bolalarning nutqiy rivojlanish sur'atini sezilarli darajada oshiradi. Inklyuziv ta'lim muhitida esa sog'lom tengdoshlar bilan muloqot qilish ijtimoiy adaptatsiyani tezlashtiradi va nutqiy faollikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, koxlear implantli bolalar bilan olib boriladigan pedagogik ishlar faqat nutqni shakllantirish bilan cheklanmay, balki ularning jamiyatga integratsiyasi, mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan kompleks tizim sifatida qaralishi zarur. Bunday yondashuv bolalarning ta'lim jarayonida to'liq ishtirok etishini ta'minlaydi va ularning hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lalaeva R.I. (2004). Logopediya. Sankt-Peterburg: Soyuz.
2. Flexer C. (2015). Auditory Development in Children with Hearing Loss. San Diego: Plural Publishing.
3. World Health Organization (WHO). (2021). World Report on Hearing. Geneva: WHO.
4. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. Paris: UNESCO.
5. Northern J.L., Downs M.P. (2014). Hearing in Children. Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins.
6. O'zbekiston Respublikasi. (2020). "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. Toshkent.
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. (2022). Eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarni reabilitatsiya qilish bo'yicha metodik tavsiyalar. Toshkent.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.